



MILLIY IQTISODIYOTNI INNOVATION SHAROITIGA O'TISH DAVRIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA ZAMONAVIY MEHNAT BOZORI

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari to'plami



19-noyabr 2025-yil

Toshkent 2025

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

MEHNAT BOZORI TADQIQOTLARI INSTITUTI



**MILLIY IQTISODIYOTNI INNOVATSION SHAROITIGA O‘TISH DAVRIDA
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA ZAMONAVIY MEHNAT BOZORI**

**mavzusidagi
respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**

**MATERIALLAR TO‘PLAMI
2025-yil 19-noyabr**

Toshkent - 2025

«Milliy iqtisodiyotni innovatsion sharoitiga o'tish davrida raqamli transformatsiya va zamonaviy mehnat bozori» respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. –T.: TDIU 2025. – 1090 b.

Ushbu to'plam « Milliy iqtisodiyotni innovatsion sharoitiga o'tish davrida raqamli transformatsiya va zamonaviy mehnat bozori» mavzusida bo'lib, unda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida demografiya va mehnat iqtisodiyotiga oid muammolar, hududlarda ishsizlikni kamaytirish va migrasiyani tartibga solishning dolzarb masalalari, moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali aholi turmush farovonligini ko'tarishning ustuvor yo'nalishlar, O'zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi raqamli transformatsiya, demografik salohiyatlardan foydalanish istiqbollari kabi mavzularga oid tadqiqot ishlari va ilmiy qarashlari aks ettirilgan materiallar bayoni keltirilgan.

To'plamga iqtisodiy muammolar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan etakchi xorijiy va mahalliy oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqot muassasalarining mutaxassislari, ilmiy xodimlari, doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari hamda iqtidorli talabalari, vazirlik va korxonalarning rahbar xodimlari va mutaxassislarning ilmiy izlanishlari natijalari kiritilgan.

To'plamda keltirilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar, keltirilgan me'yoriy - huquqiy hujjatlarning haqqoniyligi, bildirilgan fikr - mulohazalar va takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

Mas'ul muharrir: i.f.d., prof. S.K. Xudoyqulov

Tahrir hay'ati:

i.f.d., prof. B.X. Umurzakov

i.f.d., prof. A.S. Usmanov

i.f.d., prof. A.M. Qodirov

i.f.d., dots. F.I. Isayev

Taqrizchilar:

i.f.d. X.X. Mamadaliyeva

g.f.d., prof. Z.N. Tojiyeva

Tashkiliy guruh a'zolari:

M.I. Asqarova

M.A. Bahriddinova

© "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ITM, 2025-yil

3-SHO'BA

HUDUDLARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI TAKOMILLASHTIRILGAN MAHSULOTLAR, XIZMATLARNI TASHKIL ETISH

Egamberdiyev Farmonqul Tursunkulovich, Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi <i>Transport infratuzilmasining iqtisodiy o'sishga va mehnat bozoriga ta'siri (toshkent shahri misolida).....</i>	551
Ismanov Ibrohim Nabiyeovich, Xomidova Mohidil Sherzodjon qizi <i>Raqamli texnologiyalar orqali hududlarda xizmat va mahsulotlar samaradorligini oshirish xususiyatlari.....</i>	553
Арипов Ойбек Абдуллаевич <i>Худудларда рақамли трансформациялардан фойдаланиш орқали такомиллаштирилган маҳсулотлар ва хизматларни ташкил этиш.....</i>	556
Berdiyev Baxtiyor Sodiqovich <i>Raqamli transformatsiyadan hududlarda foydalanish orqali mahsulotlar va xizmatlarni takomillashtirish yo'llari.....</i>	560
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, Eshqulova Nasiba Normo'mino'na <i>Raqamli transformatsiya sharoitida tashqi savdo va uning hududiy barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati.....</i>	563
Дусмухамедов Ойбек Сураатбекович <i>Креатив ва инновацион иқтисодиётнинг моҳияти ҳамда уларнинг ўзига ҳос жиҳатлари.....</i>	568
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li <i>Turizm tarmog'i raqobat ustunliklarini kompleks rivojlantirish.....</i>	572
Мурадов Ботир Хаят <i>Методологические подходы разработки стратегии социально-экономического развития промышленных предприятий регионов.....</i>	575
Payazov Murod Maksudovich <i>Raqamli transformatsiya xizmatlar sohasida: tendensiyalar, boshqaruv, strategiyalar</i>	580
Расулов Нозимжон Набиджонович <i>Пойабзал маҳсулотлари бозорини ривожланиши жараёнлари.....</i>	584
Ачилов Салоҳиддин Саломович <i>Цифровая трансформация налоговой системы и применение метода экспертных оценок в стратегическом управлении.....</i>	587
Ma'murov Baxtiyor Xolmatjanovich <i>Hududlarni barqaror rivojlantirishda strategik rejalashtirish va yashil transformatsiya</i>	592
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли <i>Современные подходы к обеспечению конкурентоспособности предприятий жилищно-коммунального хозяйства.....</i>	594
Obidov Jamshidbek G'ayratjon o'g'li <i>Ishlab chiqarishda zamonaviy bosim o'lchash asboblari va raqamli transformatsiyalardan foydalanish orqali metrologik xizmatlarni tashkil etish.....</i>	598
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li <i>Rivojlanayotgan davlatlarda kambag'allikni kamaytirish yondashuvlari.....</i>	600
Djumanov Abdumalik Abduvakhovich, Utkurova Nasiba Abdumalik qizi <i>Improving delivery service performance using discrete event simulation modeling.....</i>	603
Teshabaeva Odina Nasridinovna, Himmatova Gulnoza Komiljon qizi	606

Review. – 1994. – Vol. 11. – № 1. – P. 7-31

6. Miller R., Blais R.A. *Modes of innovation in six industrial sectors // IEEE Transactions on Engineering Management. – 1993. - № 40 (3). – P. 264-273.*

7. Howkins J. *The Creative Economy: How People Make Money from Ides. 2nd Edition. London: "Penguin Books Ltd", 2013. – 291 pages.*

8. Флорида Р. *Креативный класс. Люди, которые меняют будущее/ Пер. с англ. М.: Классика XXI, 2005. 430 с.*

TURIZM TARMOG'I RAQOBAT USTUNLIKLARINI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH

Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li
Alfraganus universiteti professori, DSc

Milliy turizm tarmog'ining raqobat ustunliklarini rivojlantirish davlat va hududlar miqyosida faoliyatni qat'iy rejalashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunda asosiy e'tibor milliy turizm tarmog'i va hududlar turizm kompleksining resurs salohiyatini inobatga olgan holda samarali rivojlanishning o'rta istiqbolga mo'ljallangan chora-tadbirlarini belgilab olishga qaratiladi. Milliy turizm tarmog'i raqobat ustunliklarini kompleks rivojlantirish bo'yicha o'rta istiqbolga mo'ljallangan amaliy chora-tadbirlarning asosiy yo'nalishlari global xizmatlar bozorida egallangan pozitsiyani yanada mustahkamlashga xizmat qilishi lozim [1].

Strategik maqsadlarga erishish ko'zlangan dasturlarni uzoq istiqbol uchun ishlab chiqish ko'p jihatdan noaniqliklar paydo bo'lishiga olib keladi. Boisi shundaki, global xizmatlar bozoridagi konyunkturaviy o'zgarishlar, siyosiy beqarorlik omili ta'sirida va fors-major vaziyatlarida milliy turizm tarmog'ida strategik maqsadlarga erishish ko'zlangan dasturlarning asosiy yo'nalishlarini bajarish imkonsiz bo'lib qolishi kuzatiladi. Shulardan kelib chiqib, strategik maqsadlarga erishish ko'zlangan dasturlarni o'rta istiqbol uchun ishlab chiqish har taraflama maqbul yechim sanaladi.

Dunyoning turizm tarmog'i jadal rivojlanayotgan davlatlari tajribasi tahlillariga ko'ra, milliy turizm tarmog'i raqobat ustunliklarini kompleks rivojlantirish bo'yicha o'rta istiqbolga mo'ljallangan amaliy chora-tadbirlar dasturlarining tasdiqlanishi pirovard natijada boshqaruv samaradorligi ortishini kafolatli ta'minlaydi. Milliy turizm tarmog'i va hududlar turizm kompleksining resurs salohiyatini baholash asosida raqobat ustunliklarini kompleks rivojlantirish bo'yicha o'rta istiqbolga mo'ljallangan amaliy chora-tadbirlar dasturlari o'zining strategik mo'ljalga ega ekanligi, bajarilish muddatlari va mas'ul ijrochilar majburiyatlarining aniq ifodalanganligi bilan ajralib turadi. Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy dasturning qabul qilinishi tarmoqda tarkibiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Xuddi shunday, milliy turizm tarmog'i raqobat ustunliklarini kompleks rivojlantirish bo'yicha o'rta istiqbolga mo'ljallangan amaliy chora-

tadbirlar dasturi realizatsiyasi ham moliyaviy resurslar bilan yetarli ta'minlangan bo'lishi zarur [2].

Milliy turizm tarmog'i raqobat ustunliklarini kompleks rivojlantirish bo'yicha o'rta istiqbolga mo'ljallangan amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish jarayoni milliy turizm tarmog'ida shakllangan joriy vaziyatga obyektiv baho berishdan boshlanadi. Milliy turizm tarmog'idagi joriy konyunkturaviy vaziyatni o'rganishning muqobil usullaridan biri SWOT-tahlili hisoblanadi. Vaziyatli tahlilning mazkur turi milliy turizm tarmog'ining ichki imkoniyatlari va tashqi tahdid omillarini ilmiy asoslangan tartibga o'rganadi. Jumladan, milliy turizm tarmog'ining kuchli tomonlari va zaif jihatlari ichki muhit omillarini tashkil etsa, mov ravishda, iqtisodiy o'sish imkoniyatlari va global bozor risklari tashqi muhit omillarini tashkil etadi. Iqtisodiy o'sish imkoniyatlaridan to'la foydalanish evaziga milliy turizm tarmog'ining zaif jihatlari tugatilsa, milliy turizm tarmog'ining ustun tomonlariga konsentratsiyani kuchaytirish orqali global bozor risklarining salbiy ta'siri kamaytiriladi. Milliy turizm tarmog'i SWOT-tahlili matritsasining har bir komponenti barqaror rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlarini ko'rsatib beradi. Milliy turizm tarmog'i SWOT-tahlili davlat siyosatining muayyan yo'nalishida belgilangan ustuvorliklarni takomillashtirish yuzasidan boshqaruv qarorlari qabul qilishning xolis axborot manbai vazifasini bajaradi (1-jadval).

1-jadval

Turizm tarmog'idagi konyunkturaviy vaziyatning SWOT-tahlili

<u>STRENGTHS</u> - turizm tarmog'ining kuchli tomonlari	<u>OPPORTUNITIES</u> - turizm tarmog'ining rivojlanish imkoniyatlari
1. Milliy turizm tarmog'i personal tarkibining professional kvalifikatsiyasi; 2. B2B munosabatlarida tijorat sherik-chiligining strategik manfaatlar nuqtai nazaridan mustahkam huquqiy-shartnomaviy asoslarga tayanganligi; 3. Milliy turizm tarmog'ining bir nechta bozor segmentlari miqyosida diversifikatsiyalanganligi; 4. Milliy turizm brendining raqobatli bozorda aniq pozitsiyaga ega ekanligi; 5. Milliy turizm tarmog'ida servis sifati nazoratining tizimli yo'lga qo'yilganligi.	1. Innovatsion tavsifdagi turizm mahsulotlari bilan yangi sotuv bozorlariga kirib borish; 2. Turistik marshrutlar tarkibida mintaqalarga tegishli noan'anaviy resurslarni inobatga olish; 3. Milliy turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb qilish; 4. Servis provayderlarining chegirmali narxlardagi xizmatlaridan foydalanish; 5. Potensial turistlar diqqatini tortishda ekskluziv turlarni qo'llash.
<u>WEAKNESSES</u> - turizm tarmog'ining kuchsiz jihatlari	<u>THREATS</u> - turizm tarmog'ining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi risk omillari
1. Milliy turizm tarmog'i moddiy-texnik bazasining modernizatsiyalashmaganligi; 2. Moliyaviy aktivlarning tijorat faoliyatini to'laqonli amalga oshirishda yetarli emasligi; 3. Milliy turizm tarmog'ini boshqarish strukturasi zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga muvofiq emasligi; 4. Innovatsiyalarni o'zlashtirish jarayoni-ning sust kechishi; 5. Servis personalni mehnatini motivatsiya-lashning muntazam yo'lga qo'yilmaganligi.	1. Raqobatchi subyektlar tomonidan demping narxlar siyosatining qo'llanilishi; 2. Sheriklik munosabatlari o'rnatilgan servis provayderlarining bankrotlikka uchrashi; 3. Mintaqada siyosiy beqarorlikning vujudga kelishi; 4. O'rinbosar turmahsulotlar raqobat bosimining kuchayishi; 5. Tabiiy ofatlar natijasidagi fors-major holatlar.

Manba: Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Milliy turizm tarmog'idagi joriy konyunkturaviy vaziyatning SWOT-tahlili, avvalo, kuchli tomonlarni o'rganishdan boshlanadi. Milliy turizm tarmog'ida shakllangan joriy vaziyatni obyektiv baholash xulosalariga tayanib, keyinchalik davlat siyosatining u yoki bu yo'nalishida belgilangan ustuvorliklarni takomillashtirish yuzasidan boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Milliy turizm tarmog'i personal tarkibining professional kvalifikatsiyasi, B2B (business to business) munosabatlarida tijorat sherikchiligining strategik manfaatlar nuqtai nazaridan mustahkam huquqiy-shartnomaviy asoslarga tayanganligi, milliy turizm tarmog'ining bir nechta bozor segmentlari miqyosida diversifikatsiyalanganligi, milliy turizm brendining raqobatli bozorda aniq pozitsiyaga ega ekanligi, milliy turizm tarmog'ida servis sifati nazoratining tizimli yo'lga qo'yilganligi kuchli tomonlar sirasiga kiradi. Mos ravishda, milliy turizm tarmog'ining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi risk omillari raqobatchi subyektlar tomonidan demping narxlar siyosatining qo'llanilishi, sheriklik munosabatlari o'rnatilgan servis provayderlarining bankrotlikka uchrashi, mintaqada siyosiy beqarorlikning vujudga kelishi, o'rinbosar turmahsulotlar raqobat bosimining kuchayishi, tabiiy ofatlar natijasidagi fors-major holatlar kabilarni o'z ichiga oladi [3].

Ta'kidlash joizki, milliy turizm tarmog'i personal tarkibining professional kvalifikatsiyasiga qo'yilgan malakaviy talablarni mujassamlashtirgan professiogramma yaratilgan. Ushbu hujjat milliy turizm tarmog'idagi biznes subyektlariga tegishli vakansiyalarni yollanma menejerlar bilan to'ldirishda asosiy yo'riqnoma vazifasini o'tamoqda. Bundan tashqari, milliy turizm tarmog'i personal tarkibini yuqori malakali xodimlar bilan uzluksiz to'ldirib borishga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari va universitetlarning turizm fakultetlari hissa qo'shmoqda. "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti Toshkent filiali, Buxoro davlat universiteti, Urganch davlat universiteti hamda nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining turizm fakultetlari milliy turizm tarmog'i uchun yuqori malakali mutaxassislar yetkazib berishda yetakchilik qilmoqda.

Milliy turizm tarmog'ining kuchli tomonlaridan yana biri B2B (business to business) munosabatlarida tijorat sherikchiligining strategik manfaatlar nuqtai nazaridan mustahkam huquqiy-shartnomaviy asoslarga tayanganligidir. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining qarorlari, chora-tadbirlar rejalari va "Yo'l xaritalari" milliy turizm tarmog'ini tashkiliy-ma'muriy va huquqiy tartibga solishga xizmat qilmoqda. Davlat rahbarining xorijiy tashriflari chog'ida imzolangan ikki tomonlama teng manfaatli sheriklikka asoslangan idoraviy memorandumlar xalqaro hamkorlik aloqalarining huquqiy negizini tashkil etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, milliy turizm tarmog'i istiqbolli rivojlanishining qo'shimcha imkoniyatlari innovatsion tavsifdagi turizm mahsulotlari bilan yangi

sotuv bozorlariga kirib borish, turistik marshrutlar tarkibida mintaqalarga tegishli noan'anaviy resurslarni inobatga olish, milliy turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb qilish, servis provayderlarining chegirmali narxlardagi xizmatlaridan foydalanish, potensial turistlar diqqatini tortishda eksklyuziv turlarni qo'llash yo'llarini qamrab oladi. Xuddi shuningdek, milliy turizm tarmog'i moddiy-texnik bazasining modernizatsiyalashmaganligi, moliyaviy aktivlarning tijorat faoliyatini to'laqonli amalga oshirishda yetarli emasligi, milliy turizm tarmog'ini boshqarish strukturasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga muvofiq emasligi, innovatsiyalarni o'zlashtirish jarayonining sust kechishi, servis personali mehnatini motivatsiyalashning muntazam yo'lga qo'yilmaganligi milliy turizm tarmog'ining kuchsiz jihatlari hisoblanadi. Milliy turizm tarmog'idagi joriy konyunkturaviy vaziyatning SWOT-tahlili matritsasidan ko'rinadiki, barqaror rivojlanishda risk omillari ta'sirini kuchli tomonlarga diqqatni yanada kuchaytirish evaziga qisqartirish mumkin. Milliy turizm tarmog'ining mavjud kuchsiz jihatlari, o'z navbatida, qo'shimcha iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini to'la ishga solish orqali bartaraf etiladi.

Adabiyotlar:

1. *Xalilov S. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. Toshkent: "Alfraganus University", 2025-y. – 125 bet.*
2. *Sayfutdinov Sh. O'zbekistonda turizm sohasini barqaror rivojlantirish strategiyasi. Monografiya. Toshkent: "Kitob nashr", 2024-y. – 124 bet.*
3. *Tilovmurodov D. Ekskursiya ishi. O'quv qo'llanma. Toshkent: "Alfraganus University", 2025-y. – 152 bet.*
4. *uzbektourism.uz – O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi rasmiy sayti.*
5. *unwto.org – Butunjahon turizm tashkiloti rasmiy sayti.*

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ РАЗРАБОТКИ СТРАТЕГИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕГИОНОВ

Мурадов Ботир Хаят

*Ташкентского государственного
технического университета имени Ислама Каримова
факультет нефти и газа независимый соискатель (DSc) кафедры
"Промышленная экономика и менеджмент"*

Саморегулируемая рыночная экономика не обеспечила необходимый экономический рост, повышение благосостояния населения, сокращение различий в условиях жизни населения. После чего была начата разработка и установление новой системы планового, стратегического управления народным хозяйством. Методическая база по всему кругу вопросов разработки документов стратегического планирования в настоящее время в качестве нормативного документа отсутствует, в связи с чем, будет

MILLIY IQTISODIYOTNI INNOVATSION SHAROITIGA O'TISH DAVRIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA ZAMONAVIY MEHNAT BOZORI

mavzusidagi
respublika ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLAR TO'PLAMI 2025-yil 19-noyabr

Mas'ul muharrir:
i.f.d., prof. S.K. Xudoyqulov

Kompyuterda sahifalovchi:
S.M. Kamilova

Bosishga ruxsat etildi 24.10.2024-y. Qog'oz bichimi 60x80 1/16.
Shartli bosma tabog'i 40,3b.t. Adadi 100 nusxa.

Tahririyat manzili:
100003, Toshkent sh., Chilonzor tumani, IslomKarimov ko'chasi 49-uy
Telefonlar (99871) 239-28-26, 239-28-98
